

O'ZBEKISTON SUV HAVZALARINING NOYOB VA YO'QOLIB BORAYOTGAN QUSHLARI

G'ofurova Muqaddasxon Shavkatjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston suv havzalarining noyob va yo'qolib borayotgan qush turlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ornitofauna, IUCN, qizil kitob, krechyotka, populyatsiya, Columbiaformes, Columba, Grueformes, Otididae, Anseriformes, Ciconia nigra.

Аннотация. В данной диссертационной работе представлены сведения о редких и исчезающих видах птиц водоемов Узбекистана.

Ключевые слова: орнитофауна, МСОП, красная книга, сверчок, популяция, Columbiaformes, Columba, Grueformes, Otididae, Anseriformes, Ciconia nigra.

Annotation. This thesis provides information about rare and endangered bird species of the water bodies of Uzbekistan.

Keywords: Ornithofauna, IUCN, red book, cricket, population, Columbiaformes, Columba, Grueformes, Otididae, Anseriformes, Ciconia nigra.

O'zbekiston hududi ko'chmanchi va mahalliy qushlar uchun muhim biogeografik mintaqa hisoblanadi. Ammo urbanizatsiya, yerning degradatsiyasi va boshqa antropogen omillar tufayli ko'plab qush turlari yo'qolish xavfi ostida qolmoqda O'zbekiston geografik jihatdan Osiyo va Yevropa o'rtasidagi migratsiya yo'llarida joylashgan bo'lib, ko'chmanchi va mahalliy qushlarning turli xil turlari uchun muhim yashash joyi hisoblanadi. Mamlakatda 500 ga yaqin qush turi qayd etilgan, ulardan bir qismi noyob, ayrimlari esa yo'qolib borayotgan turkumga kiradi.

Yerda qushlar yo'q bo'lib ketsa, ekologik falokat yuz beradi. Bu haqda Toshkent shahri Botanika bog'ida "1-aprel Xalqaro qushlar kuni"ga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda aytib o'tildi, deya xabar bermoqda "Daryo" muxbiri. Tadbirda tabiat resurslari vaziri Aziz Abduhakimov O'zbekiston ochiq suv havzalarida qishlaydigan suv qushlarining sonini aniqlash va ularni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish bo'yicha loyiha amalga oshirilayotganini ma'lum qildi. Tabiat resurslari vazirligi matbuot xizmati "2022-yilda loyiha doirasida tadqiqotlar olib borilib, Respublikamizning 49 ta ochiq suv havzalarida 111 turdagi qushlar mavjudligi aniqlangan. Shulardan 24 turi O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan. Qushlarning umumiy soni 597 ming 272 boshni tashkil etadi. Mamlakatimiz ornitofaunasida jami 22 turkumga oid 478 ta tur vakillari uchrab turadi", – deydi Aziz Abduhakimov. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirda qushlarni muhofaza qilish masalasi dolzarb ekologik muammolardan biriga aylanib ulgurgan. Dunyoda 10 mingga

yaqin qush turlaridan 1 ming 200 dan ortig‘i yoki qushlarning har sakkizinchi turi Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqining “Qizil ro‘yxati”ga kiritilgan.

O‘zbekistondagi qush turlarining kamayishiga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

Suv resurslari inqirozi: Orol dengizining qurishi va daryolarning o‘zgarishi suv qushlariga katta zarar yetkazdi.

Tuproq eroziyasi va o‘rmonlarning kesilishi: Dasht va o‘rmon hududlarining kamayishi ko‘plab qushlarning yashash joylarini toraytirgan.

Qo‘riqxonalar va milliy bog‘lar: Boysun, Zomin, Chatqol kabi qo‘riqxonalarda noyob qush turlari saqlanib qolgan. O‘zbekistonda 56 ta qush turi xavf ostida hisoblanadi.

Xalqaro hamkorlik: O‘zbekiston Ramsar konvensiyasi va IUCN kabi tashkilotlar bilan birgalikda qushlarni muhofaza qilish loyihalarida ishtirok etmoqda.

IUCN muhofaza maqomi belgilari: CR-og‘ir ahvolda, EN- xavf ostida, LC-minimal xavf ostida, NT-tahdid qilingan guruhga o‘tishga yaqin, VU-zaif.

O‘zbekistonda eng noyob qushlardan biri — krechyotkalar jahon populyatsiyasining yarmi qayd etildi. Oktabr-noyabr oylarida O‘zbekiston hududida jahondagi eng noyob qush turlaridan biri bo‘lgan krechyotkalarining butun dunyodagi populyatsiyasining yarmigacha qismi qayd etilgan. Bu haqda Qushlarni himoya qilish jamiyatida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib xabar qilinadi. Krechyotka Xalqaro Qizil kitobga yo‘qolib ketish yoki o‘ta yuqori xavf ostida bo‘lgan tur sifatida kiritilgan. So‘nggi yillarda Shimoliy Qozog‘istonda in qo‘yadigan ushbu qushlarning soni ikki baravarga, Yevropada esa 80 foizga kamaydi. Asosiy sabablar sifatida Qozog‘iston va Rossiyada cho‘llarning yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelgan qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar, shuningdek, yaylovlarning tanazzulga uchrashi hamda ovchilik sanab o‘tilgan.

Kaptarsimonlar turkumi (Columbiformes), Kaptarlar oilasi (Columba) Qora kaptar (Columba eversmanni). Zaif uyalovchi, uchib o‘tuvchi tur. Soni: O‘tmishda keng tarqalgan, bir necha minggacha uyalari bo‘lganligi ehtimoli bor. 1960-1970-yillarda ularning soni keskin kamaygan, hozirgi vaqtda – bir necha yuz qush qolgan. Tarqalishi: G‘arbiy Tyan-Shan, G‘arbiy Pomir-Oloy pasttekisliklari, Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo vodiylari (uyalaydi); tekislik va tog‘ oldi hududlari (uchib o‘tadi).

Turnasimonlar turkumi (Gruiformes) Tuvaloqlar oilasi (Otididae) Yo‘rg‘a tuvaloq (Chlamydotis undulata macqueenii). Zaif uyalovchi, uchib o‘tuvchi tur. Soni: uyalash davrida - 1,5-3 ming (kv. km ga 0,05-0,4 bosh); migratsiya davrida - 20 ming boshgacha. 1960-yillardan soni va tarqalish diapazoni qisqara boshlagan, 1980-yillardan boshlab esa yanada keskin kamayish kuzatilgan. Tarqalishi: Qizilqum cho‘li.

G'ozsimonlar turkumi (Anseriformes). O'rdaksimonlar oilasi (Anatidae), Olaqan (*Aythya nyroca*) Zaif turlarga yaqin uyalovchi, uchib o'tuvchi tur.

Soni: 1960-yillarda janubiy Orolbo'yida keng tarqalgan bo'lib, hozir ko'plab yashash joylarida uchramaydi. 100 ga yaqin juft Amudaryoning quyi oqimida uyalaydi. Tarqalishi: Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolari havzalari (uyalaydi, ko'chib o'tadi, qishlaydi).

Yo'qolib borayotgan qushlar turlari: O'zbekistonda xavf ostida bo'lgan va tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) tomonidan ro'yxatga olingan ayrim qushlar: Oqquyruq burgut (*Haliaeetus albicilla*). Katta suv havzalari yaqinida yashaydi. Baliq ovlash va daryolar qurishi bu turning sonini kamaytirmoqda. Qora laylak (*Ciconia nigra*), Tog' va dashtlarda uchraydi. Bu turning soni asosan urbanizatsiya va o'rmonlarning kesilishi sababli qisqarib bormoqda. Kumush chag'alay (*Larus argentatus*), Orolbo'yi hududlarida ko'p uchrardi, ammo Orol dengizi inqirozi sabab yashash joyi yo'qolib bormoqda. Kulrang turna (*Grus grus*) Turnalar oilasiga mansub bo'lib, suv havzalari va botqoqliklarni afzal ko'radi. Hududning qurib borishi bu turning sonini keskin kamaytirgan. Qizil o'rdak (*Tadorna ferruginea*), Daryo va ko'llar yaqinida yashaydi. Tabiiy suv havzalarining o'rni sun'iy inshootlar bilan almashtirilishi bu turning yashash muhitiga zarar yetkazmoqda.

O'zbekistonning noyob va yo'qolib borayotgan qushlari ekologik tizimning muhim qismi bo'lib, ularni himoya qilish uchun muhim ekologik loyihalarni amalga oshirish talab etiladi. Aholining ekologik savodxonligini oshirish va davlat tomonidan qo'shimcha choralar ko'rish orqali bu turlarni asrab qolish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi II-jildi. Hayvonlar, Toshkent: Chinor ENK, 2009 y.
2. Furqat Hasanov. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. Toshkent, 2019 y.
3. Meklenbursev R.N., Sagitov A.K., Kashkarov D.Yu., Mitropoliskiy O.V., Fotteler E.R., Tretyakov G.V., Ostapenko M.M., Nazarov A.P. O'zbekiston qushlari 1-jild. Toshkent: "Fan" O'zbekiston SSR. 1987 y.
4. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантиришнинг Меърий-Ҳукукий Асослари. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences Scientific Journal*, 266.
5. Худайназаров, Ф. (2023). Исламские Финансы: Проблемы И Решения. *Экономическое развитие и анализ*, 1(8), 109-114.